

TUGALLANGANLIKKA ALOQADOR TEMPORAL VOSITALAR

M. Saloxiddinov¹

Annotatsiya:

Ushbu maqola tildagi tugallanganlikka aloqador (vaqt munosabatlari bilan bog'liq) zamon iboralarini o'rganishga bag'ishlangan. Muallif vaqtinchalik konstruksiyalarning tuzilishi va funktsiyalarini, shuningdek, lingvistik aloqa kontekstida semantik idrok etishga ta'sirini tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: temporal birlik, dinamik aspect, transformasiya, aspektual semantika, freym

doi: <https://doi.org/10.2024/vacevh85>

Kirish. Har bir tilda tugallangan qurilmalarni hosil qiluvchi qator sinonimik guruhlar mavjud bo'lib, ular sirasiga temporal birliklarni kiritish mumkin. Temporal birliklar ko'pgina tillarda voqea-hodisa, harakatlarni boshlanishi, davriyligi, kechimi, takroriyligi, paytini anglatish bilan bir qatorda, tugallanganligini ham ifodalab keladi. Mazkur qurilmalarning sinonimik guruhi hosil bo'lishida ko'makchi fe'llarning o'rni muhim.

Temporal birliklarning tugallanganlik mazmuni ularni fe'l bilan modifikatsiyasi emas, balki kognitiv jarayonlarda tugallanganlikni ko'p ma'noliligiga murojaat etishga, ularning turli ma'nolar kategorizatsiyasi va konseptualizatsiyasida muhim o'rin tutadi. Fe'l leksikasida dinamik aspekt zamon va makonda voqelanadi, ular gapda kesim vazifasida predmet, obyektни paytga bog'lab kelishi orqali propozitsiya yadrosini hosil qiladi. Propozitsiya bilimning namoyish etuvchi vosita hisoblanadi. Mazkur bilim zamon va makon bilan uzviy aloqador bo'lib, voqea-hodisalarga nisbatan munosabatni anglatadi.

Asosiy. Dinamik sinfga tegishli fe'llarning ichki tuzilishida namoyon bo'ladigan qarama-qarshiliklarga qo'yishlardan biri - bu ularni jarayon (events) va harakat va hodisaning natijasi (achievements) kabi turlarga ajratish hisoblanadi. Ular o'rtasidagi farqlanish zamon-vaqt tushunchalari bilan bog'liq bo'lib, hodisa ma'lum qisqa vaqt davomida bir holatdan ikkinchi holatga o'tishni anglatish uchun qo'llanilsa, jarayon holatning rivojlanishi va asta-sekinlik bilan o'zgarishiga nisbatan qo'llaniladi. Jarayon-events guruhiga tegishli fe'llarga to run (yugurmoq), to play (o'ynamoq), to work (ishlamoq) kirsam, hodisaga (achievements) esa to jump (sakramoq), to fall (yiqilmoq) kabilar xos hisoblanadi. Events guruhiga tegishli fe'llar, o'z navbatida, chegaralanmagan (atelic) predikatlarni hosil qiladi. Ta'kidlab o'tilganidek, fe'l(predikat)ning aksional xususiyati uning obyekt bilan birikuvi, kontekstdagi til vositalarining qo'llanilishiga asoslanib aniqlanadi. Xususan, chegaralanmaganlik harakat yoki jarayonning uzluksizligi ifodalanishi bilan izohlanadi. Masalan: Henry, Sophia and Professor Phindikles rode donkeys up to the Lion Yate. (Ch. Friezer, 403); "Why do not you ride with the transport?" I asked (Ch. Friezer, 54).

¹Saloxiddinov Manuchehr Sharofiddinovich, SamDCHTI o'qituvchisi

Chegaralanganlik esa dinamik harakatning qisqa vaqt oralig'ida tugallanishi, bir holatdan ikkinchi holatga o'tishi bilan bog'liq hisoblanib, va achievements aspektual hodisasini ifodalaydi. Masalan: The hens had abandoned the little chicken house and roosted in trees and dropped their eggs wherever the mood struck them (Ch. Friezer, 29). He stepped away, keeping the pistol leveled at the man, who hopped up to his feet, his eyes never leaving the barrel ends (Ch. Friezer, 115).

Chegaralangan predikatlar harakat yoki vaziyatning transformasiyasini, holat o'zgarishini anglatishi bilan bir vaqtda, tugallanganlik konseptini yuzaga keltiradi.

Fe'llar har qanday tildagi ifoda mazmunida eng muhim o'rinda turadi. Fe'llarning leksik-semantik ma'nolari boshqa turkum so'zlariga nisbatan boyroq va egiluvchan hisoblanadi. Bir xil vaziyatda bir shaklga ega komponentning leksik ma'nosi kontekst ta'sirida o'zgarishi mumkin. Ko'pgina holatlarda fe'l birliklari boshqa turkumlar bilan birikib, o'ziga xos ma'nolar hosil qilishi mumkin. Bu ma'nolar turli tillarda turlicha, turli birikmalarda namoyon bo'lishi mumkin. Paydo bo'ladigan ma'nolar sintaktik birliklarning vazifasidagi komponentlarning harakat, holat va boshqa belgilarning mazmuni, xususan, sub'ekt bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlarga namoyon bo'ladi. Kontekstdagi birliklar chegaralangan predikatlarining aspektual semantikasini boyitish uchun ham xizmat qiladi. Ular muqum vaziyatni ifodalamasdan, balki bir holatdan ikkinchi holatga o'tish, tugallanganlikni anglatadi. Tugallanish ma'nosi nutq vaziyatiga, turli temporal birliklarning qo'llanilishiga qarab farqlanishi mumkin. Masalan: She went to the other room and finally came into mine (Hem, 132); She went in and using her hands to funnel her voice, called the "stop work" (E. Hem. 245). Keltirilgan misollarda fe'l semantikasi temporal birliklar ta'sirida tugallanganlikni anglatib kelgan. Ma'lum tugallangan harakatlarning takrorlanishi (iterativligi) yuzaga kelgan.

Kichik vaziyatlarda yuzaga keladigan tugallanganlik mazmuni hosil bo'lishida temporal vositaning leksik-semantik xususiyati va fe'lga tegishli bo'lgan aksional semantikaning o'rni muhimroq hisoblanadi. Masalan: Sophia moved up last, slowly, for her long woolen dress was having its woven threads pulled by briars (Stone, 130). Aravakash qo'l siltab, yana Boboqulni chaqirdi. (L. Mahmudov "Jasur bolalar" Toshkent 1973 Yosh gvardiya nashriyoti. B. 31)

Semantik strukturada hosil bo'ladigan tugallanganlik aspektual konseptining ifodalanish usullari quyidagicha ko'rinish oladi: subyekt uning harakati va shu harakatning obyektga yetganligi, subyekt holatining o'zgarishi, subyekt harakatining obyektini parchalashi. Predikat doirasida tugallanganlik aspektual hodisasi subyekt va uning faoliyati, subyekt harakatining miqdori ifodalovchi temporal birliklar yordamida hosil bo'ladi.

Tugallanganlik konsepti semantik jihatdan ikkiga, ya'ni tugallanganlik va natijaviylik turlariga ajratiladi. Mazkur konseptlarning struktur tuzilishi ham murakkab va sodda vaziyatlarning ifodalanishida, turli temporal birliklarning faollashuvida yuzaga keladi. Masalan: With the commencement of the rain the lightning gradually ceased (Cronin, 56). Throughout the interview she kept her temper perfectly, laughing and jesting in a slightly patronizing way at her husband, whereas Mor by the end of it was reduced to almost speechless anger (Murdoch: 104). All the walk was delightful and though it ended too soon its conclusion was delightful too (Austen, 403). Keltirilgan misollarning birinchisida faza fe'li biror vaziyatning yakunlanishini bildirgan bo'lsa, gradual temporal

vositasi uning tugallanishiga bo'lgan yo'lni anglatgan, ikkinchi misoldagi faza fe'li esa, natijani ifodalagan.

Xulosa. Ingliz tilidagi perfekt shakli bilan ifodalanadigan tugallanganlik grammatik shaklga bog'liq bo'lsa-da, bunda fe'lning dinamik xususiyati ham o'z o'rniga ega. Faqatgina dinamik fe'llar perfekt shaklida tugallangan ma'noni anglatadi. Shuning uchun ham, vaziyat, hodisa yoki jarayonlar hozirgi noaniq zamonda muqobil tahlil uchun majburiy qo'llanilish sifatida talqin qilish mumkin. Bu kabi jarayonlar tugallangan va ba'zi hollarda natijaga yetaklovchi tugallangan aspektual vaziyatning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

O'zbek tilidagi tugallangan tuzilmalar va grammatik ko'rsatkichlar sifatida –gan, -gan edi, tuzilmalari, bo'lmoq, tugatmoq, nihoyasiga yetkazmoq, kabi fe'l va murakkab fe'l qurilmalari, shuningdek, chiqmoq, qolmoq, olmoq, yetmoq, tushmoq ko'makchi fe'llarining chegaralangan xususiyati yetakchi fe'llar bilan birikishida hosil bo'ladi. Ta'kidlash joizki, o'zbek tilida tugallanganlikning ushbu vositalarda ifodalanishi vaziyatga qarab maqsadli, natijali, ma'lum hatti-harakat mahsuli, tasodifli, boshqaruvli kabi semantik farqlanishlarga ega.

Shunday qilib, harakat yoki holatning miqdoriy determinasiyasini aniqlab keladigan tushunchalar ikki holatda namoyon bo'ladi. Ulardan birinchisi ma'lum bir cheklangan mazmundagi tugallanganlikni namoyon etsa, ikkinchisi esa sub'ektning ma'lum hatti-harakatlari natijasida yuzaga keladi. Ushbu tushuncha asosan temporal vaziyatlarning qayta-qayta yuzaga kelishi natijasida hosil bo'ladigan tugallanganlikni bildiradi. Mazkur tugallanganlik sodda, qo'shma gaplarda va matn ta'sirida yuzaga kelib, sintaktik, semantik, tematik freymlar bilan aloqador ravishda shakllanadi. Tugallanganlik aspektual belgilari esa, ushbu vaziyatlarni aniqlashtiruvchi temporal birliklarda namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. Bo'ronov J. *Ingliz va o'zbek tillari qiyosiy grammatikasi*. – Toshkent: O'qituvchi, 1973. –284 b.

[2]. Mirsanov G'.Q. *Ingliz va o'zbek tillarida yurish-harakat fe'llarining aksional va aspektual xususiyatlari*. *Filol.fan.n....diss. avtoref.* –T., 2009. – 21 b.

[3]. Плу́нзян В. А. *Введение в грамматическую семантику: грамматические значения и грамматические системы языков мира*. М.: РГГУ, 2011. –672 с

[4]. Safarov Sh. *Pragmalingvistika*. – T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi», 2008. – 286 b.

[5]. Langacker R.W. *The English present tense // English Language and Linguistics*, 2001.5 (2): –P. 251–272

[6]. Jude Deveraux. *The awakening*. –USA: Pocket books, 2007. –231 p.